

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.22/29.12.2023.I.175.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY**

RAXIMOV DILSHODJON TURDIALI O‘G‘LI

**YO‘L QURILISH TASHKILOTLARINING MOLIYAVIY
BARQARORLIGINI TA‘MINLASH YO‘LLARI**

08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2026-yil

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in
Economic Sciences**

Raximov Dilshodjon Turdiali o‘g‘li

Yo‘l qurilish tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash yo‘llari.....3

Рахимов Дилшоджон Турдали угли

Обеспечение финансовой устойчивости дорожестроительных организаций27

Rakhimov Dilshodjon Turdiali ugli

Ensuring the financial stability of road construction organizations53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....59

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.22/29.12.2023.I.175.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY**

RAXIMOV DILSHODJON TURDIALI O‘G‘LI

**YO‘L QURILISH TASHKILOTLARINING MOLIYAVIY
BARQARORLIGINI TA‘MINLASH**

08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2026-yil

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2024.3.PhD/Iqt446-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent xalqaro universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tiu.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz)ga joylashtirilgan.


Ilmiy rahbar:	Xusanov Qaxramon Nishonovich Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	Ro'ziyeva Dilobar Isomjonovna Iqtisodiyot fanlari doktori, professor Alimardonov Muxamadi Ibragimovich Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Toshkent kimyo-texnologiya instituti

Dissertatsiya himoyasi Tashkent International University huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.22\29.12.2023.I.175.01. raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "17" 01 kuni soat 12 daqiqa majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi 7-uy. Tel.: (99895) 131-55-55; faks: (99895) 131-55-55; e-mail: (www.tiu.uz)

Dissertatsiya bilan Tashkent International University Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (4 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 7-uy. Tel.: (99895) 131-55-55; faks: (99895) 131-55-55; e-mail: (www.tiu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "22" 12 kuni tarqatildi.

(2025-yil "06" 12 daqiqa 68 -raqamli reyestr bayonnomasi).



N.X.Jumayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

I.X.Abduraxmonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

D.A.Raxmonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. So‘nggi yillarda jahonda yo‘l qurilish tashkilotlarining moliyaviy barqarorligi turli global va mahalliy omillar ta‘sirida qayta shakllanmoqda. Xususan, 2020–2022-yillar davomidagi COVID-19 pandemiyasi butun dunyo qurilish sohasiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatdi. Birinchidan, epidemiologik cheklovlar va karantin choralari tufayli yirik infratuzilma loyihalari vaqtincha to‘xtatildi yoki muddatsiz kechiktirildi. Ikkinchidan, ta‘minot zanjirlarining uzilishi qurilish materiallari — sement, metall, asfalt, uskunarlar — narxlarining keskin o‘shishiga olib keldi. Uchinchidan, ishchi kuchi tanqisligi va migratsiya cheklovlari natijasida ishlab chiqarish hajmlari pasaydi, bu esa tashkilotlarning daromadlari va pul oqimlariga salbiy ta‘sir qildi¹. Pandemiya tugab, iqtisodiy faollik qayta jonlana boshlashi bilan, ko‘plab davlatlar infratuzilmani rivojlantirishni iqtisodiy tiklanishning asosiy omili sifatida ko‘rdi. Bunday yondashuv AQSH, Xitoy, Yaponiya, Germaniya, Hindiston kabi yirik iqtisodiyotlarda yaqqol namoyon bo‘ldi. Jumladan, AQSH hukumati tomonidan 2021-yilda qabul qilingan “Infrastructure Investment and Jobs Act” orqali 1,2 trillion dollar miqdorida byudjet ajratilib, yo‘llar, ko‘priklar, temir yo‘llar, portlar, aeroportlar va keng infratuzilma tarmoqlarini modernizatsiya qilishga qaratilgan². Bu loyiha orqali 20 yil ichida AQSH tarixidagi eng katta infratuzilma investitsiyasi amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan.

Jahonda 2022–2024-yillar davomida global iqtisodiyotda yuz bergan geosiyosiy beqarorliklar — xususan Rossiya va Ukraina o‘rtasidagi nizo, G‘arb davlatlari va Xitoy o‘rtasidagi iqtisodiy tartibsizliklar, Yaqin Sharqdagi muammolar — qurilish sohasiga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Ushbu beqarorliklar va ular ortidan yuzaga kelgan yuqori inflyatsiya darajalari dunyo bo‘ylab xom ashyo (sement, metall, bitum) va yoqilg‘i (benzin, dizel, gaz) narxlarining sezilarli darajada oshishiga sabab bo‘ldi. Masalan, 2023-yilda qurilishda foydalaniladigan temir mahsulotlari narxi Yevropa Ittifoqi hududida o‘rtacha 18–25% ga ko‘tarildi³. Bunday sharoitda yo‘l qurilish tashkilotlarining rejalashtirilgan smetalari va moliyaviy prognozi muvozanatdan chiqib ketdi, ko‘plab tender va shartnomalar qayta ko‘rib chiqishga majbur bo‘ldi. Keyingi bosqichda davlatlar tomonidan qurilish tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida xarajatlarni kompensatsiyalash, soliq yengilliklari, foizsiz kreditlar va inflyatsiya koeffitsiyenti asosida qayta moliyalashtirish kabi mexanizmlar joriy etildi. Jumladan, Germaniya va Fransiyada qurilish kompaniyalari uchun "iqtisodiy barqarorlik paketlari" ishlab chiqilib, inflyatsiyaning ta‘sirini yumshatishga qaratilgan yo‘l xaritalari amaliyotga joriy qilindi.

Yangi O‘zbekistonda yo‘l qurilish tashkilotlarining moliyaviy barqarorligi davlat infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli dasturlar, tashqi sarmoyalar, hamda ichki bozordagi iqtisodiy o‘zgarishlar ta‘sirida shakllanmoqda. 2017–2024-yillar mobaynida Prezident farmonlari va davlat dasturlari asosida bir

¹ World Bank (2021). Impact of COVID-19 on Infrastructure Development. Washington, D.C.

² The White House (2021). Fact Sheet: The Bipartisan Infrastructure Deal. www.whitehouse.gov

³ Eurostat (2023). Construction Material Price Index in the EU.

qator yirik transport infratuzilmasi loyihalari amalga oshirildi. Xususan, magistral va shahar avtomobil yo'llarini qurish hamda ta'mirlash ishlari faollashdi. Bu yo'l qurilish tashkilotlari uchun faoliyat ko'lamlarini kengaytirish va barqaror daromad manbaiga ega bo'lish imkonini yaratdi. Shu bilan birga, qurilish materiallari (bitum, sement, metall) hamda yoqilg'i narxining o'sishi qurilish xarajatlarini ortishiga olib keldi. Masalan, 2023-yilda sement narxi 25% ga oshgani qayd etilgan⁴. Bundan tashqari, ayrim tashkilotlarda debitor va kreditor qarzdorlik darajasining yuqoriligi likvidlik muammolarini keltirib chiqarmoqda. Moliya vazirligining 2023-yilgi hisobotlariga ko'ra, yo'l qurilish tashkilotlarida qarzlashish ko'effitsiyenti 0.8–1.2 atrofida bo'lib, bu moliyaviy barqarorlik uchun muammo solishi mumkinligini ko'rsatadi⁵. raqamlashtirish va texnologik innovatsiyalarni joriy etish — xususan, BIM (Building Information Modeling) tizimi, GPS-nazorat texnologiyalari — samaradorlikni oshirish va xarajatlarni optimallashtirish imkonini bermiqda⁶. Davlat tomonidan yo'l qurilishiga yo'naltirilayotgan mablag'lar ko'lami ham yildan-yilga ortib bormiqda. 2023-yilda davlat byudjeti hisobidan 12 trln so'm yo'l qurilishi va ta'miri uchun ajratilgan bo'lsa, xalqaro moliya institutlari tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalar (XKTTB, OTB va boshqalar) ham tashkilotlar uchun muhim moliyaviy manba hisoblanadi. Biroq, kichik va o'rta yo'l qurilish tashkilotlari uchun tenderlarda ishtirok etish imkoniyatlarining cheklanganligi, kredit resurslariga kirish imkoniyatining kamligi va malaka oshirish imkoniyatlarining yetarli emasligi ularning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun har bir tashkilotning resurslardan samarali foydalanishi, xarajatlarni optimallashtirishi va davlat qo'llab-quvvatlovi mexanizmlaridan foydalanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-sentyabrdagi PF–6315-sonli Farmoni "Avtomobil yo'llarini rivojlantirish va yo'l xo'jaligini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida", Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 2-noyabrdagi 683-sonli qarori "Yo'l qurilish tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini yaxshilash va ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-maydagi PF–138-sonli Farmoni "Qurilish sohasini isloh qilish va raqobatbardoshlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 16-avgustdagi PQ–357-sonli qarori "2022–2026-yillarda avtomobil yo'llari tarmog'ini rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-iyundagi 367-sonli qarori "Yo'l-qurilish korxonalarida xalqaro standartlar asosida buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlil tizimini joriy qilish to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasida qurilish sohasini raqamlashtirish konsepsiyasi" (2020–2025-yillar uchun) Qarorlari hamda mazkur sohaga oid tegishli bo'lgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni

⁴ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi (2024). Qurilish materiallari bozoridagi narxlar tahlili.

⁵ Moliya vazirligi hisobotlari (2023). Yo'l qurilish tashkilotlarining moliyaviy ko'rsatkichlari tahlili.

⁶ "O'zavtoyo'l" agentligi matbuot xizmati (2023). Raqamlashtirish orqali yo'l qurilishida samaradorlikni oshirish choralari.

amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari nazariy-ilmiy, uslubiy va amaliy muammolari, davlat ulushi bo'lgan davlat korxonalarining faoliyatini tashkil etish, moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha xorij olimlardan D. A. Aschauer, Bent Flyvbjerg, Edward Glaeser, Jeffrey Sachs, Sorokina Ye.M. S.Popova, V.Slepunin N.Gerasimova, V Arxipov. G.S. Belyakov, Bespalov N.S. , Bespalov N.N. va boshqa iqtisodiyot olimlar ishlarida o'rganilgan⁷ va boshqalarning ilmiy ishlarida atroflicha tadqiq etilgan.

Korxonalarining moliyaviy barqarorligi, moliyaviy tahlil, investitsion faoliyat, rentabellik, kapital tuzilmasi, xarajatlarni boshqarish, va raqamli transformatsiya yo'nalishlarida bir qator o'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan N.Nabiyeva, A.A.Kulmatov A.U.Burxanov, Sh.Mustafaqulov, R.Karlibayeva, O'.A.Haydarov, Sh.Sherkulov va boshqalarning ilmiy ishlarida korxonalarning moliyaviy ko'rsatkichlarini chuqur o'rganib, ularning barqarorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan strategiyalar taklif hamda korxonani moliyaviy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha qator ilmiy va amaliy takliflar ishlab chiqilgan⁸.

Yuqoridagi olimlarimiz tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda korxonalarni moliyaviy barqarorligini baholashning nazariy uslubiy asoslari, moliyaviy samaradorlikni baholash usullari, davlat ulushi mavjud korxonalarning

⁷ Aschauer, D. A. (1989). Is public expenditure productive?. Journal of monetary economics, 23(2), 177-200. Flyvbjerg, B., Bruzelius, N., & Rothengatter, W. (2003). Megaprojects and risk: An anatomy of ambition. Cambridge university press., Glaeser, E. (2011). Triumph of the city: How urban spaces make us human. Pan Macmillan. Sachs, J. D. (2015). The age of sustainable development. Columbia University Press. , Сорокина Е.М. Анализ денежных потоков предприятия: теория и практика в условиях реформирования российской экономики. СПб.: Финансы и статистика, 2002. — 175с. S.Ye. Popova, VL. Slepunin.-M.: Moskovskiy gosudarstvennyy universitet ekonomiki, statistiki i informatiki,2007.-211s; Н.Герасимова Механизмы финансирования проектов государственно-частного партнерства в сфере дорожного хозяйства герасимова натаалья евгеньевна институт управления бизнес-процессами и экономики сфу г.красноярск <https://web.snauka.ru/issues/2014/01/30940>. ; Архипов В. Дороги, не обеспечивающие намеченное экономическое, социальное развитие России. Что делать? Строительная газета. 2006. 5 с 1-3. Беляков Г.С. Совершенствование методов подготовки инвестиционных решений в дорожном строительстве // Экономика строительства. 1999. - № 12. - С. 45 - 52. Беспалов Н.С. , Беспалов Н.Н. Совершенствовать хозяйственный механизм ремонта и содержания дорог в Москве // Экономика строительства. -2001.-№7.-С. 34-39.

⁸ Nabiyeva, N. (2020). O'zbekiston Respublikasi yo'l-transport infratuzilmasini innovatsion rivojlantirish. iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya (2012); Kulmatov A.A.(2023) Tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishida transport infratuzilmasining tutgan o'rni 42, 67-76, Burxanov A.U. Korxonalar moliyaviy barqarorligi: nazariya va amaliyot. Monografiya. – T.: "Innovatsion rivojlanish" nashriyat-matbaa uyi, 2019. - 160 b;Mustafakulov Sh.I. O'zbekistonda investitsion muhit jozibadorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish. i.f.d. (DSc). diss. avtoreferati. T., 2017; Karlibaeva, R., Kurbonov, K., Bekimbetova, G., & Shaturaev, J. (2022). The effectiveness of investment projects in development of innovative activities of enterprises. European Business Management, 8(3); Haydarov O'.A. Milliy iqtisodiyot doirasida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish yo'llari; Sherkulov Sh. (2022).O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda transportlogistikaning ahamiyati. 1(02), 80-84.

o'ziga xos jihatlari, ulardagi mavjud muammolarning yuzaga kelishi sabablariga e'tibor qaratilgan. Ushbu dissertatsiya ishida yo'l qurilish tashkilotlarida mavjud munazarali muammolar, ularning yuzaga kelib chiqishi va bartaraf etish yuzasidan ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar mazkur ilmiy ishning dolzarblik darajasini yanada oshiradi.

Shu sababli, hozirgi kunda va ayniqsa, "O'zbekiston-2030" Strategiyasi vazifalari asosida iqtisodiyotning korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash bilan bog'liq tadqiqotlarni amalga oshirish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent xalqaro universitetining "O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligi va prognozlashtirilishini ta'minlashning ilmiy-uslubiy asoslari va uslubiyatlarini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Yo'l qurilish tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalalari bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

yo'l qurilish tashkilotlarining moliyaviy barqarorlik tushunchasi va uning ahamiyatini aniqlash;

moliyaviy barqarorlikni baholash uchun asosiy ko'rsatkichlar va indikatorlarni o'rganish;

tashkilotlarning moliyaviy holatini tahlil qilish metodlarini ishlab chiqish va qo'llash;

xarajatlarni boshqarish va optimallashtirish mexanizmlarini tadqiq etish;

investitsion faoliyatni samarali tashkil etish va moliyaviy manbalarni jalb qilish yo'llarini aniqlash;

raqamli texnologiyalar va innovatsion yechimlar yordamida moliyaviy barqarorlikni oshirish imkoniyatlarini o'rganish;

yo'l qurilish tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida mamlakatimizda faoliyat yo'l qurilish tashkilotlari olingan.

Tadqiqotning predmeti yo'l qurilish tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini shakllantirish, uni baholash va mustahkamlash jarayonlari hamda moliyaviy boshqaruv vositalari va strategiyalaridir.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida tizimli va qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil va umumlashtirish, korrelyatsion va regression tahlil, statistik taqqoslash va guruhlashtirish, iqtisodiy modellashtirish, prognozlash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yo'l qurilish tashkilotlarida moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, raqamlashtirilgan loyiha boshqaruvi va zamonaviy yondashuvlar asosida moliyaviy

samaradorlikni baholovchi moliyaviy barqarorlik indeksi ko'rsatkichlar tizimi takomillashtirilgan;

yo'l qurilish tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda loyihalarning ijtimoiy ta'siri, moliyaviy barqarorlik imkoniyatlari va natijalariga erishish darajasini baholash asosida xalqaro kreditlar va xalqaro moliya institutlari mablag'laridan samarali foydalanishning ustuvor yo'nalishlar taklif etilgan;

yo'l qurilish tashkilotlarida loyihalar samaradorligini oshirishda davlat subsidiyalari va xususiy investitsiyalarni hajm va sifat ko'rsatkichlari asosida integratsiya qiluvchi uzoq muddatli va muvozanatlashgan davlat-xususiy sheriklik mexanizmi taklif qilingan;

umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini ekspluatatsiya qilish ishlarini xususiy sektorga outsorsing asosida topshirishni tashkil etish hamda moliyalashtirish jarayonlarini avtomatlashtirish, ma'lumotlarni real vaqtda tahlil qilish va moliyaviy jarayonlarning shaffofligini ta'minlovchi integratsiyalagan axborot tizimini yaratish taklif qilingan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yo'l qurilish tashkilotlarining moliyaviy holatini aniqlash va baholash uchun samarali tahlil usullari ishlab chiqildi. Ushbu usullar moliyaviy ko'rsatkichlarni chuqur o'rganish va tashkilotning barqarorligini aniqlashda qo'llaniladi. Natijada, moliyaviy holatning zaif tomonlari aniqlandi va ularni bartaraf etish choralari belgilash imkoniyati yaratildi;

xarajatlarni boshqarish va optimallashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Bu tavsiyalar yo'l qurilish jarayonlarida resurslarni samarali taqsimlash va ortiqcha xarajatlarni kamaytirishga qaratilgan. Natijada, tashkilotlarning moliyaviy samaradorligi oshirilib, rentabellik darajasi yaxshilandi;

investitsion faoliyatni yaxshilash uchun moliyaviy manbalarni jalb qilish mexanizmlari va strategiyalari takomillashtirildi. Bu strategiyalar orqali tashkilotlar yangi loyihalarni moliyalashtirishda ko'proq imkoniyatlarga ega bo'ldi. Natijada, yo'l infratuzilmasining rivojlanishi uchun zarur bo'lgan investitsiyalar oshdi;

raqamli transformatsiya vositalari orqali moliyaviy boshqaruv jarayonlari modernizatsiya qilindi. Bu orqali hisob-kitoblar, monitoring va hisobotlar tez va aniq shaklda amalga oshirilmoqda. Natijada, tashkilotlarning moliyaviy barqarorligi mustahkamlanib, boshqaruv samaradorligi oshdi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ekonometrik va matematik usullarning asoslanganligi, statistik ma'lumotlarning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlariga hamda boshqa rasman e'lon qilingan amaliy ma'lumotlar tahliliga asoslanganligi va tegishli xulosa, taklif va tavsiyalarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, u yo'l qurilish sohasida moliyaviy boshqaruv va barqarorlikka oid nazariy konseptlar, metodologiyalar hamda tahlil usullarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu mavzu doirasida moliyaviy barqarorlikni

baholash mezonlari va ko'rsatkichlari aniqlandi, shuningdek, iqtisodiy o'zgarishlar, investitsion jarayonlar va raqamli transformatsiyaning yo'l qurilish tashkilotlari moliyaviy holatiga ta'siri ilmiy jihatdan tadqiq etildi. Bu esa moliyaviy nazariyalarni amaliyotga tatbiq etishda yangi yondashuvlarni shakllantirishga yordam beradi.

Amaliy ahamiyatiga kelsak, mavzu doirasida ishlab chiqilgan tavsiyalar va strategiyalar yo'l qurilish tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, xarajatlarni optimallashtirish va investitsion faoliyatni samarali tashkil etishda qo'llaniladi. Shuningdek, raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali moliyaviy boshqaruv jarayonlari takomillashtirilib, tashkilotlarning iqtisodiy barqarorligi oshiriladi. Bu esa yo'l infratuzilmasini rivojlantirish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish hamda mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yo'l qurilish tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalalari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

yo'l qurilish tashkilotlarida moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, raqamlashtirilgan loyiha boshqaruvi va zamonaviy yondashuvlar asosida moliyaviy samaradorlikni baholovchi moliyaviy barqarorlik indeksi ko'rsatkichlar tizimi takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi Huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasi faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi Huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasining 2025-yil 27-maydagi № 04-2369 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, yo'l qurilish tashkilotlarining loyiha boshqaruv jarayonlarining funksional samaradorligi 35 foizga oshishi, moliyaviy resurslardan foydalanish natijadorligi 25 foizga yaxshilanishi hamda loyihalarni moliyalashtirish muddati o'rtacha 30 foizga qisqarish orqali, ijtimoiy ta'sirni baholash jarayonlarida shaffoflik darajasi oshirishga, turli manfaatdor tomonlarning qaror qabul qilish jarayonida ishtirok etish imkoniyatlari kengaytirishga va ularning ishonch indeksi sezilarli darajada o'sgani kuzatilgan.

yo'l qurilish tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda loyihalarning ijtimoiy ta'siri, moliyaviy barqarorlik imkoniyatlari va natijalariga erishish darajasini baholash asosida xalqaro kreditlar va xalqaro moliya institutlari mablag'laridan samarali foydalanishning ustuvor yo'nalishlar taklifi O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi Huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasi amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi Huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasining 2025-yil 27-maydagi № 04-2369 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, yo'l qurilish tashkilotlariga xalqaro kreditlar va moliya institutlaridan 1,2 trillion so'mlik mablag' jalb qilingan bo'lib, bu loyihalarning ijtimoiy ta'siri va samaradorligi 450 milliard so'mga teng qo'shimcha iqtisodiy va ijtimoiy foyda keltirgan holda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda 320 milliard so'mlik qo'shimcha resurslar yaratilgan;

yo'l qurilish tashkilotlarida loyihalar samaradorligini oshirishda davlat subsidiyalari va xususiy investitsiyalarni hajm va sifat ko'rsatkichlari asosida integratsiya qiluvchi uzoq muddatli va muvozanatlashgan davlat-xususiy sheriklik mexanizmi taklifi O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi Huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasi amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi

Transport vazirligi Huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasining 2025-yil 27-maydagi № 04-2369 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, loyihalarni moliyalashtirish uchun davlat subsidiyalari va xususiy investitsiyalar mablag'i 500 milliard so'mga oshgan, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish hisobiga 350 milliard so'm qo'shimcha mablag' tejalgan, hamda loyihalarning ijtimoiy-iqtisodiy natijadorligi 420 milliard so'mlik qo'shimcha ijobiy ta'sir ko'rsatgan holda yo'l qurilish jarayonlarining moliyaviy barqarorligi uchun 280 milliard so'mlik qo'shimcha moliyaviy resurs yaratilgan;

umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini ekspluatatsiya qilish ishlarini xususiy sektorga outsorsing asosida topshirishni tashkil etish hamda moliyalashtirish jarayonlarini avtomatlashtirish, ma'lumotlarni real vaqtda tahlil qilish va moliyaviy jarayonlarning shaffofligini ta'minlovchi integratsiyalagan axborot tizimini yaratish taklifi O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi Huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasi amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi Huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasining 2025-yil 27-maydagi № 04-2369 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, moliyalashtirish jarayonlari 480 milliard so'mga avtomatlashtirilgan, ma'lumotlarni tahlil qilish vaqti 60 foizga qisqartirilgan, moliyaviy shaffoflik ortishi 350 milliard so'mlik qo'shimcha resurslarni jalb qilishga imkon bergan, hamda yo'llarning ekspluatatsiyasi uchun xususiy sektor tomonidan 420 milliard so'mlik investitsiyalar kiritilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Dissertatsiyaning ilmiy-amaliy natijalari 2 ta xalqaro va 5 ta Respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi OAKning doktorlik dissertatsiyalari natijalarini chop

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ish 164 bet matndan iborat bo'lib, 17 ta jadval, 21 ta rasmni o'z ichiga oladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning « **Yo'l qurilish tashkilotlarida moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy barqarorligning ilmiy nazariy asoslari** » deb nomlangan birinchi bobida Global iqtisodiy muhitda moliyaviy barqarorlik - nafaqat korxona darajasida, balki davlat, mintaq va xalqaro miqyosda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi. XXI asrda kuzatilgan global

moliyaviy inqirozlar, energetika bozoridagi beqarorliklar, pandemiya va geosiyosiy ziddiyatlar sharoitida korxona va tarmoq darajasida moliyaviy barqarorlikka erishish masalasi yanada dolzarb tus olib bormoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, raqobatbardosh iqtisodiyot va faol investitsion muhit aynan moliyaviy barqaror subyektlar faoliyati bilan bog'liq.

Markaziy Osiyo davlatlarida, xususan, iqtisodiy islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston kabi mamlakatlarda korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash - bozor mexanizmlarining barqaror ishlashi, davlat budjeti barqarorligi, infratuzilmaviy rivojlanish va xususiy sektor salohiyatini oshirishda asosiy tarkibiy bo'g'in sifatida ko'rilmoqda. Ayniqsa, infratuzilma tarmoqlari, energetika, transport va qurilish sohalarida faoliyat yurituvchi yirik xo'jalik subyektlari uchun bu masala strategik ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyoti kontekstida esa moliyaviy barqarorlikka erishish masalasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan qator strategik hujjatlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to'g'risidagi PF–60-sonli Farmon (2022-yil 28-yanvar), “2023–2026-yillarda transport infratuzilmasini kompleks rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PQ–436-sonli qaror (2023-yil 21-dekabr), shuningdek, “2021–2025-yillarda davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish konsepsiyasi” to'g'risidagi PQ–5013-sonli qaror (2021-yil 22-fevral) orqali ustuvor davlat siyosati sifatida belgilangan bo'lib, bu yo'nalishda moliyaviy boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, “Uzavtoyo'l” tizimi korxonalarining moliyaviy barqarorligi - avtomobil yo'llari sifatini yaxshilash, xalqaro tranzit imkoniyatlarini kengaytirish, xususiy sektorni jalb qilish va uzoq muddatli infratuzilmaviy loyihalarni samarali moliyalashtirish imkoniyatlarini belgilab beradi. Mamlakatdagi har bir iqtisodiy sektor faoliyatining samaradorligi bevosita uning yalpi ichki mahsulot shakllanishidagi hissasi bilan bog'liqdir. Shunday tarmoqlardan biri bo'lmish qurilish sohasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hal qiluvchi drayverlaridan biri bo'lib, u infratuzilmani rivojlantirish, transport-kommunikatsiya tizimlarini kengaytirish, ish bilan bandlikni oshirish, energiya ta'minoti, telekommunikatsiya salohiyatini kuchaytirish va investitsiyalarni jalb etish orqali iqtisodiyotning barqaror o'sishiga sezilarli hissa qo'shadi. Qurilish sektori iqtisodiyotning eng murakkab, kapital sig'imi yuqori va dinamik tarmoqlaridan biri hisoblanadi. U mamlakatning barqaror rivojlanish maqsadlariga, xususan, aholi daromadlari o'sishi, bandlik darajasini oshirish, ijtimoiy infratuzilmani kengaytirish va iqtisodiy infratuzilmani takomillashtirishga xizmat qiluvchi muhim omildir. Shu sababli, mazkur sohaning YAIMdagi ulushi va dinamikasini tahlil qilish zamonaviy iqtisodiy tahlilning ajralmas qismi sanaladi.

Qurilish sohasi iqtisodiyotning yuqori kapital sig'imi va resurs iste'moli bilan ajralib turuvchi tarmoqlaridan biri bo'lib, unda faoliyat yurituvchi korxonalarning moliyaviy barqarorligi nafaqat korxonaning o'z faoliyati, balki umumiy loyihaviy va infratuzilmaviy jarayonlarning uzluksizligi uchun ham strategik ahamiyatga ega hisoblanadi. Moliyaviy barqarorlikning mavjudligi qurilish kompaniyasining kapital jalb qilish imkoniyatlari, operatsion jarayonlarni boshqarish qobiliyati, tender jarayonlaridagi raqobatbardoshligi hamda tashqi hamkorlar bilan barqaror aloqalarini ta'minlaydi.

1-jadval

Moliyaviy barqarorlik tushunchasiga olimlar tomonidan berilgan ta'riflar⁹

№	Olimlar	Ta'riflar
1	R. Brealey, S. Myers	Moliyaviy barqarorlik – bu kompaniyaning o'z majburiyatlarini bajara olish, kapital oqimlarini boshqarish va iqtisodiy o'zgarishlarga moslasha olish qobiliyatidir.
2	P. Drucker	Moliyaviy barqarorlik – bu samarali boshqaruv, strategik rejalashtirish va xavflarni oldindan ko'ra bilish qobiliyatining natijasidir.
3	J. Van Horne	Barqarorlik kapital strukturasi orqali moliyalashtirish xarajatlarini kamaytirish va korxona qiymatini oshirishga qaratilgan.
4	E.Brigham, J. Houston	Moliyaviy barqarorlik – bu korxonaning uzoq muddatli moliyaviy sog'lomligi va risklar bilan foyda o'rtasidagi muvozanat.
5	J. Keynes	Moliyaviy barqarorlik davlat xarajatlari va investitsiyalar orqali rag'batlantiriladi.
6	Q. Xusanov	Moliyaviy barqarorlik – bu korxonaning bo'sh pul mablag'lari va moliyaviy oqimlarining muvozanatini saqlab, o'z faoliyatini barqaror va uzluksiz davom ettirish qobiliyatidir
7	E.A.Akramov	“moliyaviy mustahkamlik tushunchasi va uning ko'rsatkichlarini tavsiya etgan, unga ta'sir etuvchi omillarni asoslab bergan. Shuningdek, u moliyaviy barqarorlik toifasi korxonaning moliyaviy holatini zaruriy bir xil darajada turishi va pasaymasligini ifodalovchi ko'rsatkich ekanligini ta'kidlaydi”
8	T.S. Malikov	xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligini umumiy (avtonomiya koeffitsiyenti, qarz kapitalining konsentratsiyalashuvi koeffitsiyenti, qarz va o'z mablag'larining nisbati koeffitsiyenti) va nisbiy ko'rsatkichlari (zaxira va xarajatlarning o'z kapitali bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti, moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti, o'z kapitalining manyovrlilik koeffitsiyenti) ifodalaydi”
9	A.U. Burxonov	moliyaviy barqarorlik – bu korxona yoki tashkilotning moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish, o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish, tashqi va ichki xavf-xatarlarga bardoshli bo'lish hamda uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini ta'minlash qobiliyatidir.

Korxonaning moliyaviy barqarorligi uning umumiy moliyaviy holatini ifodalaydi va bu barqarorlikning turli ko'rinishlari korxonaning iqtisodiy ahvoli, resurslardan foydalanish qobiliyati va majburiyatlarini bajarish imkoniyatini aks ettiradi.

⁹ Tadqiqot davomida muallif tomonidan ishlab chiqildi

Korxona moliyaviy barqarorligi asosiy ko‘rinishlari tavsifi¹⁰

/r	Korxona moliyaviy barqarorligi-ning asosiy ko‘rinishlari	Tavsifi	Ahamiyati
1.	Likvidlik barqarorligi	Bu ko‘rinish korxonaning qisqa muddatli moliyaviy majburiyatlarni bajarish qobiliyatini anglatadi. Korxonaning o‘z vaqtidagi naqd mablag‘lari va boshqa likvid aktivlari orqali qisqa muddatli qarzlarni to‘lashi moliyaviy barqarorlikning muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi.	Korxona likvidligi yaxshi bo‘lsa, u qisqa muddatda qarzlarni va to‘lovlarni to‘lay oladi, bu esa ishonchlikni oshiradi va moliyaviy inqirozlardan himoyalaydi.
2	Rentabellik (foyda) barqarorligi	Rentabellik barqarorligi korxonaning foyda olish qobiliyatini ifodalaydi. Bu uning asosiy faoliyati natijasida daromad keltirishi va bu daromadning xarajatlardan yuqori bo‘lishi orqali moliyaviy barqarorlikka erishadi.	Korxona faoliyati foydali bo‘lgani uchun u o‘zining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta‘minlay oladi. Foyda korxonaning kapitalini oshirish va qarzlarni qoplash imkonini beradi.
3	Kapital tuzilmasi barqarorligi	Bu ko‘rinish korxonaning o‘z kapitali va qarz mablag‘lari o‘rtasidagi muvozanatini anglatadi. Kapital tuzilmasi barqaror bo‘lganda, korxona o‘z moliyaviy resurslarini optimal ravishda taqsimlaydi, bu esa uning qarz yukini kamaytirish va kapitaldan samarali foydalanish imkonini beradi.	Kapital tuzilmasining barqarorligi korxonani ortiqcha qarzlardan himoya qiladi va investorlar uchun ishonchli bo‘ladi. Korxonaning o‘z kapitali qarzga nisbatan ko‘p bo‘lganda, u uzoq muddatli barqarorlikka erishadi.
4.	Moliyaviy oqimlar barqarorligi	Moliyaviy oqimlar barqarorligi korxonaning naqd pul oqimlarining kirish va chiqishini nazorat qilish qobiliyatidir. Ushbu barqarorlik korxonaning kutilgan daromadlar bilan kutilgan xarajatlar o‘rtasidagi muvozanatni saqlashiga asoslanadi.	Moliyaviy oqimlarning barqarorligi korxonaning qisqa va uzoq muddatli xarajatlarini to‘liq moliyalash imkonini beradi va korxonaning naqd pul yetishmovchiligiga duch kelishining oldini oladi.
5	Qarzdorlik barqarorligi	Bu ko‘rinish korxonaning qarzlarni boshqarish va o‘z vaqtida qaytarish qobiliyatini ifodalaydi. Qarzdorlik barqarorligi korxonaning uzoq muddatli qarz majburiyatlarini vaqtida to‘lash imkoniyatiga ega bo‘lishini ta‘minlaydi.	Korxonaning qarzdorlikni to‘g‘ri boshqarishi moliyaviy salomatlikning muhim qismi bo‘lib, u korxonaga o‘z moliyaviy majburiyatlarini bajarishga imkon beradi va kredit beruvchilar hamda investorlarda ishonch uyg‘otadi.
6	Investitsiya barqarorligi	Investitsiya barqarorligi korxonaning o‘z faoliyatini rivojlantirish uchun investitsiya jalb qilish qobiliyatini anglatadi. Bu barqarorlik yangi moliyaviy resurslarni jalb qilish va mavjud resurslardan samarali foydalanishni ta‘minlaydi.	Investitsiya barqarorligi korxonaning uzoq muddatli o‘sish strategiyalarini amalga oshirishiga yordam beradi va raqobatbardoshligini oshiradi. Investorlarning ishonchini qozonish korxonaning moliyaviy mustahkamligini yanada kuchaytiradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Yo‘l qurilish korxonalarning moliyaviy holatini tahlil qilish va moliyalashtirish amaliyoti”** deb nomlangan bo‘lib yo‘l xo‘jaligi korxonalari moliyasi xalq xo‘jaligi tarmoqlari moliya tizimining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular umumiy iqtisodiy tizimda yagona moliyaviy

¹⁰ Tadqiqot davomida muallif tomonidan ishlab chiqildi

boshqaruv va rejalashtirish tamoyillari asosida shakllanadi. Mazkur holat yo'l xo'jaligi korxonalarini butun iqtisodiyot moliya tizimining boshlang'ich bo'g'ini sifatida qarash zarurligini anglatadi. Yo'l qurilishi va ekspluatatsiyasi bilan shug'ullanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya tizimi xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlarida faoliyat yurituvchi korxonalarnikiga o'xshash asosiy prinsiplarga tayangan holda shakllanadi. Bu holat quyidagi omillar bilan izohlanadi:

barcha tarmoqlarda amal qiladigan asosiy moliyaviy toifalarning yagona iqtisodiy mohiyati mavjudligi;

tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonining umumiy iqtisodiy qonunlari asosida faoliyat yuritilishi;

tovar-pul munosabatlarining universal mexanizmlarining har bir xo'jalik yurituvchi subyektda namoyon bo'lishi.

Yo'l xo'jaligi korxonalarining moliyaviy faoliyati ham korxonaning iqtisodiy barqarorligi, moliyalashtirish manbalari, pul oqimlari va moliyaviy nazorat mexanizmlari orqali ifodalanadi. Ushbu korxonalarning moliyasi ikki asosiy vazifani bajaradi:

Resurslarni samarali taqsimlash - moliyaviy oqimlarni to'g'ri boshqarish orqali yo'l infratuzilmasi barqarorligini ta'minlash;

Barqaror moliyaviy holatni saqlash – kapital aylanmasini nazorat qilish, qarz yuki va moliyaviy risklarni minimallashtirish.

Yo'l xo'jaligi tarmog'i yuqori kapital sig'imlilik, uzoq muddatli investitsiyalar, davlat buyurtmalari va konsessiyaviy moliyalashtirish bilan tavsiflanadi. Bu esa ularning moliyasini strategik jihatdan rejalashtirilgan va davlat ishtirokida muvofiqlashtiriladigan tizim sifatida shakllantiradi.

Shuningdek, yo'l xo'jaligi korxonalarining moliyaviy salohiyati transport infratuzilmasining rivojlanishi, hududlararo logistika, sanoat va xizmatlar tarmoqlarining integratsiyasida muhim o'rin egallaydi. Shu bois, ushbu soha korxonalari moliyasi faqat ichki tarmoq manfaatlariga emas, balki umumiy iqtisodiy taraqqiyotga ham xizmat qiladi. Moliyaviy barqarorlik tashkilotning uzoq muddatli faoliyat yuritish qobiliyatini belgilovchi asosiy iqtisodiy mezonlardan biridir. Ayniqsa, yo'l qurilish tashkilotlari kabi kapital sig'imi yuqori va moliyaviy risklarga nisbatan sezgir bo'lgan sohalarda bu ko'rsatkichlar tahlili alohida ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy barqarorlikni baholashda tashkilotning o'z mablag'lari va jalb etilgan kapitali o'rtasidagi optimal nisbat, to'lovga layoqat darajasi, aktivlardan foydalanish samaradorligi va rentabellik kabi ko'rsatkichlar diqqat markazida bo'ladi. Bizning tadqiqotimizda yo'l-qurilish tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini tavsiflovchi asosiy mezonlardan biri tashkilotning to'lov qobiliyati darajasini, shuningdek, boshqa qo'shimcha moliyaviy ko'rsatkichlarni aniqlash uchun foydalaniladigan aktivlarning yetarliligi bo'ldi. Ayniqsa:

- Qurilish ishlari tannarxining o'zgaruvchanligi va materiallar narxining barqarorligi;

- Yo'l qurilishi tashkilotining har qanday iqtisodiy sharoitda zarur aktivlarni likvid holatda saqlash qobiliyati;

- Tashkilot kapitalining umumiy aktivlarga nisbati;

- Subpudratchilarni to'lash qobiliyati va qarz darajasi.

Moliyaviy barqarorlik mezonlari tashkilotning moliyaviy majburiyatlarini qoplash qobiliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu tashkilotdan uzoq muddatli moliyaviy majburiyatlarni ham, qisqa muddatli to'lovlarni ham o'z vaqtida bajarish imkoniyatini talab qiladi. T.A. Fedorova tomonidan taklif qilingan moliyaviy holat tasnifiga asoslanib, yo'l qurilish tashkilotining moliyaviy holatini tahlil qilish quyidagi shartlar doirasida amalga oshirilishi mumkin¹¹:

Barqaror moliyaviy holat. Bunday holda, moliyaviy barqarorlikning barcha asosiy tarkibiy qismlari, xususan, to'lov qobiliyati, likvidlik va rentabellik ko'rsatkichlari normal darajada bo'lib, ularning o'zaro ta'siri tashkilotning iqtisodiy risklarga chidamliligini ta'minlaydi. Asosiy ko'rsatkich - qarzlarni o'z vaqtida to'lash qobiliyati, ya'ni to'lov qobiliyati normal darajada. Bu yo'l qurilish tashkilotining qisqa muddatli va uzoq muddatli majburiyatlarni bajarish qobiliyatiga ega ekanligidan dalolat beradi. Agar likvidlik darajasi yuqori bo'lsa, u holda aktivlarni naqd pulga aylantirish tezligi yuqori bo'ladi, bu esa moliyaviy risklarni kamaytiradi. Shu bilan birga, o'rtacha yoki yuqori rentabellik darajasi tashkilotning ichki moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi. Tashkilotning ushbu tasnif doirasida moliyaviy barqaror bo'lishi uchun u aktiv va passivlar tarkibida sog'lom muvozanatga ega bo'lishi va o'z kapitalining ulushi etarlicha yuqori bo'lishi kerak.

2020–2024-yillar mobaynida “Yo'lqurilish” AJning moliyaviy ko'rsatkichlari tahlili korxona moliyaviy barqarorligida sezilarli o'zgarishlar ro'y berganini ko'rsatdi.

Birinchidan, moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti 2020-yildagi 46,9 %dan 2024-yilda 17,8 %gacha pasaygani kuzatildi, bu esa o'z mablag'lari ulushining kamayishi va korxonaning tashqi moliyalashtirish manbalariga qaramligi ortganini anglatadi.

Ikkinchidan, qarzдорlikning kapitalga nisbati ko'rsatkichining 112,8 %dan 458,8 %gacha o'sishi moliyaviy xavf darajasining keskin oshganidan dalolat bermoqda. Xususan, umumiy qarzдорlik koeffitsiyenti 82 % atrofida saqlanib, jamiyatning majburiyatlarga yuqori darajada bog'liqligini ko'rsatdi.

Uchinchidan, likvidlik ko'rsatkichlari tahlili natijalariga ko'ra, umumiy likvidlik koeffitsiyenti 1,58 dan 1,27 gacha kamaydi, bu esa qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash imkoniyatining zaiflashganini bildiradi. Tezkor likvidlik koeffitsiyenti ham 0,77 dan 0,57 gacha pasaydi, bu esa zaxiralarsiz to'lov qobiliyatining cheklanganligini ko'rsatadi.

To'rtinchidan, rentabellik ko'rsatkichlarida nisbiy tiklanish kuzatildi. 2020–2021 yillarda sof foyda va kapital rentabelligi salbiy bo'lgan bo'lsa, 2022-yildan boshlab ijobiy natijalarga erishildi (masalan, kapital rentabelligi 2022-yilda 9,89 %ni tashkil etdi). Biroq 2024-yilda sof foyda marjasi 0,9 % darajasida bo'lib, past darajada saqlanmoqda.

Beshinchidan, aktivlar va kapital aylanishi ko'rsatkichlari barqaror o'sish tendensiyasini ko'rsatdi. Kapital aylanish koeffitsiyenti 2,31 dan 7,83 gacha, aktivlar

¹¹ Fyodorova, T.A. (2006). Финансовый анализ деятельности предпрятия. – Москва: Экзамен

aylanish koeffitsiyenti esa 1,08 dan 1,4 gacha oshdi, bu jamiyatning resurslardan foydalanish samaradorligi yaxshilanganidan dalolat beradi.

Oltinchidan, debitorlik aylanish muddati o'rtacha 90 kun atrofida saqlangan, bu esa korxonaning debitor qarzlarni o'z vaqtida undirishda barqarorligini ko'rsatadi, biroq 2022 va 2024-yillarda bu ko'rsatkich salbiy og'ishlar bilan (113,5 kun va 95,8 kun) o'zgarib turdi.

3-jadval

“Yo'lqurilish” AJning 2020-2024 yillardagi moliyaviy ko'rsatkichlar tahlili¹²


Ko'rsatkich nomi	2020	2021	2022	2023	2024
Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti	46.9	21.6	16.2	17.6	17.8
Qarzdorlikning kapitalga nisbati	112.8	361.3	517.2	467.1	458.8
Umumiy qarzdorlik koeffitsiyenti	53.0	78.3	83.8	82.3	82.1
Moliyalashtirish manbalari tarkibi koeffitsiyenti	88.6	27.6	19.3	21.4	21.7
Uzoq muddatli moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti	57.9	47.4	54.0	51.9	30.9
Umumiy likvidlik koeffitsiyenti	1.58	1.55	1.57	1.51	1.27
Tezkor likvidlik koeffitsiyenti	0.77	0.54	0.58	0.46	0.57
Operatsion pul oqimi koeffitsiyenti	2.5	2.1	1.8	1.8	2.3
To'lov intizomi ko'rsatkichi	63.4	66.7	63.7	66.3	78.8
Sof foyda marjasi	- 8.3	- 7.2	1.9	1.1	0.9
Aktivlar rentabelligi	-9.05	-7.99	1.60	1.06	1.31
Kapital rentabelligi	-19.26	-36.86	9.89	6.0	7.3
Operatsion rentabellik	-6.35	4.88	5.23	8.7	4.12
Kapital aylanish koeffitsiyenti	2.31	5.1	5.13	5.14	7.83
Aktivlar aylanishi	1.08	1.1	0.83	0.91	1.4
Debitorlik aylanish muddati	97.49	86.92	113.53	84.73	95.82

Umuman olganda, 2020–2024–yillar davomida “Yo'lqurilish” AJning moliyaviy barqarorligi va likvidligi salbiy tendensiyalar bilan tavsiflangan bo'lsa-da, 2022 yildan boshlab rentabellik va operatsion faoliyat samaradorligi bo'yicha ijobiy natijalarga erishilgan. Kelgusida moliyaviy risklarni kamaytirish va moliyaviy mustaqillikni oshirish uchun o'z mablag'lari ulushini ko'paytirish, qarz yukini optimallashtirish va rentabellikni oshirish zarurati mavjud.

“Yo'lqurilish” AJ faoliyatining 2020–2024-yillar oralig'idagi moliyaviy ko'rsatkichlari asosida sof foydaga ta'sir ko'rsatuvchi omillar statistik va regressiya usullar yordamida o'rganildi. Tahlil jarayonida kredit mablag'lari hajmi, investitsiya darajasi hamda qarz/kapital nisbati regressiya modelida asosiy mustaqil omillar sifatida tanlab olindi. Regressiya tahlili natijalari kredit va investitsiya hajmining ortishi sof foydani kamaytirish tendensiyasiga ega ekanligini ko'rsatdi. Ayniqsa, investitsiya koeffitsiyentining manfiy qiymati investitsiyalarning yetarli darajada samaradorlikka ega emasligini tasdiqlaydi. Boshqa tomondan, qarz/kapital nisbati

¹² “Yo'lqurilish” AJning 2020-2024 yillar moliyaviy hisobotlari asosida muallif tomonidan hisoblab chiqilgan.

va sof foyda o'rtasida ijobiy bog'liqlik aniqlanib, moliyaviy leverajdan oqilona foydalanilayotgani kuzatildi.



1-rasm. “Yo'lqurilish” AJning 2020–2024-yillardagi oralig'idagi moliyaviy ko'rsatkichlari asosida sof foydaga ta'sir ko'rsatuvchi omillar statistik va regressiya tahlili

Model determinatsiya koeffitsiyenti (R^2) 0,93 ga teng bo'lib, regressiya modelida tanlangan omillar sof foydada o'zgarishlarning 93 foizini izohlab berishini tasdiqlaydi. Ushbu natijalar moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda kredit resurslaridan samarali foydalanish, investitsion qararlarni chuqur iqtisodiy asoslash va qarz yukini nazorat qilish zarurligini ilmiy asoslab berdi.

Cheklangan moliyaviy holat. Bunday holatda, odatda yuqori to'lovga layoqatsizlik, likvidlikning keskin pasayishi va operatsion xarajatlarni daromad bilan qoplay olmaslik bilan tavsiflanadi. Bunday holda, tashkilot nafaqat qisqa muddatli qarzlarni, balki kundalik faoliyatni moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan barqaror oqimlarni ham etarli darajada shakllantira olmaydi. Bu moliyaviy barqarorlikning pasayishiga olib keladi va ba'zi hollarda inqiroz bilan yakunlanishi mumkin¹³. Yuqori darajadagi mas'uliyat va likvid aktivlarning etishmasligi ham tashkilotning rentabelligiga salbiy ta'sir qiladi. Natijada, investorlar ushbu tashkilotlarga investitsiya qilishdan bosh tortadilar, bu esa moliyaviy resurslarning cheklanishiga olib keladi.

Dissertatsiyaning **“Davlat ishtirokidagi yo'l infratuzilma loyihalarida moliyaviy mustahkamlik va investitsion yondashuvlar”** Yo'l qurilish sohasi jahon miqyosida iqtisodiy rivojlanishning asosiy tayanch infratuzilmasi hisoblanadi. BMT, Jahon banki va boshqa yirik xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, transport va yo'l infratuzilmasiga yo'naltirilgan sarmoyalar mamlakat ichki yalpi mahsulotining (YAIM) o'sishini rag'batlantiradi, ish o'rinlari yaratadi va logistika xarajatlarini kamaytirish orqali umumiy iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

Yo'l qurilish sektori har qanday davlat iqtisodiyoti uchun asosiy tayanch

¹³ Sheremet, A.D. & Saifullin, R.S. (2014). Metodologiya finansovogo analiza. Moskva: INFRA-M

tarmoq bo'lib, u faqatgina sanoat va infratuzilma rivojiga emas, balki aholi salomatligi, yashash sharoitlari, transport qulayliklari, turizm imkoniyatlari, ekologik barqarorlik va mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy integratsiyaga ham xizmat qiladi. Shuningdek, bu sektorning rivoji daromadlar taqsimoti, ish o'rinlari yaratish, pul muomalasi faolligi va soliq bazasini kengaytirish orqali iqtisodiy o'sishga turtki beradi. Xalqaro iqtisodiy hisobotlarga ko'ra, dunyo bo'yicha qurilish sektori yiliga o'rtacha 1,7 trillion AQSh dollari hajmida yalpi ishlab chiqarishga ega bo'lib, ko'plab davlatlarda bu sektor YAIMning 5–7 foizigacha bo'lgan ulushini tashkil etadi. Shu bois, barqaror iqtisodiy rivojlanishga intilayotgan ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlar uchun qurilish sohasi asosiy tayanch tarmoqlardan biri hisoblanadi. Bu sektor orqali jamiyatning ijtimoiy sohalari - ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, transport va kommunal xizmatlar ham modernizatsiya qilinadi. Rivojlanayotgan davlatlar tajribasidan ma'lumki, yetuk va puxta rejalashtirilgan yo'l qurilish infratuzilmasining mavjud emasligi quyidagi muammolarni yuzaga keltiradi:

	Yo'l qurilish infratuzilmasida mavjud muammolar
☐	Sanoat tarmoqlari o'sishining sustlashuvi
☐	Hududlararo ijtimoiy tengsizlik
☐	Past turmush darajasi va sog'liq muhofazasi infratuzilmasining zaifligi
☐	Tashqi va ichki investitsiyalar oqimining yetarli bo'lmasligi

2-rasm. Yo'l qurilish infratuzilmasining mavjud muammolari¹⁴

Shu sababli, yo'l qurilish sohasini samarali boshqarish va uni moliyaviy, tashkiliy va me'yoriy jihatdan qo'llab-quvvatlash, zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi zarur.

Yo'l-qurilish tashkilotlarida xalqaro kreditlar va xalqaro moliya institutlari mablag'laridan samarali foydalanishni baholashga qaratilgan integral metodologiya ishlab chiqildi. U iqtisodiy samara, ijtimoiy ta'sir va moliyaviy barqarorlik indikatorlarini birlashtiruvchi kompleks modelga asoslanadi.

Kompleks samaradorlik indeksi

Kompleks indeks quyidagi formula asosida hisoblandi:

$$K_{\text{komp}} = w_1 E_{\text{iqt}} + w_2 S_{\text{ijt}} + w_3 F_{\text{mol}}$$

(vazn koeffitsiyentlari: 0.3; 0.4; 0.3).

Moliyaviy barqarorlik indeksi

$$K_{\text{barq}} = \frac{A_{\text{aylanma}}}{\text{Majburiyatlar}}$$

Metodologiya oldin:

$$K_{\text{old}} = 1.07$$

Metodologiya keyin:

$$K_{\text{yangi}} = 1.23$$

15 % o'sish qayd etildi.

Ijtimoiy samara indeksi

¹⁴ Manbalar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

$$S_{ijt} = \frac{\Delta T + \Delta Q + \Delta A}{3}$$

Tadqiqot natijalari: 7.8%, 14%, 15%.

$$S_{ijt} = 12.27\%$$

Yalpi samaradorlik natijalari

Metodologiya joriy etilishi natijasida:

- 1,2 trln so‘m xalqaro mablag‘lar jalb qilindi;
- 450 mlrd so‘m ijtimoiy-iqtisodiy qo‘shimcha foyda yaratildi;
- 320 mlrd so‘m qo‘shimcha moliyaviy resurs shakllantirildi.

Kompleks samaradorlik:

$$K_{komp} = \frac{1.97trln}{1.2 trln_H} = 1.64$$

Metodologiyani umumiy samarasi 64 % ga oshdi.

4-jadval

Metodologiyadan oldin va keyingi o‘zgarishlar

Ko‘rsatkich	Oldin	Keyin	O‘shish
Xalqaro resurslar	650 mlrd	1,2 trln	+85 %
Ijtimoiy foyda	240 mlrd	450 mlrd	+87 %
Barqarorlik indeksi	1.07	1.23	+15 %
Qo‘shimcha resurslar	—	320 mlrd	+320 mlrd

Taklif etilgan integral metodologiya xalqaro kreditlardan foydalanish samaradorligini oshirdi, moliyaviy barqarorlikni mustahkamladi va loyihalarning ijtimoiy ta‘sirini aniq baholash imkonini berdi. Uning amaldagi qo‘llanilishi 1,2 trln so‘mlik resurslarni samarali boshqarish va 450 mlrd so‘mlik qo‘shimcha qiymat yaratilishi bilan isbotlandi.

Davlat tomonidan yo‘l qurilish sohasini qo‘llab-quvvatlash - bu faqatgina byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar yoki subsidiya ajratish emas, balki tizimli yondashuv, qonunchilik bazasini takomillashtirish, uzoq muddatli investitsiya kafolatlari, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari va innovatsion moliyalashtirish vositalarini qo‘llash orqali amalga oshiriladi. amonaviy iqtisodiyotda davlatning moliyaviy resurslari infratuzilmaviy loyihalarni to‘liq moliyalashtirish uchun yetarli emasligi sababli, ko‘plab mamlakatlar yo‘l qurilishi sohasida davlat-xususiy sheriklik modelini muvaffaqiyatli qo‘llamoqda. Bu model asosida davlat va xususiy sektor o‘zaro risklarni bo‘lishgan holda, uzoq muddatli hamkorlik orqali infratuzilma loyihalarini amalga oshiradilar.

Quyidagi jadval ma‘lumotlaridagi davlat xususiy sherikchilik modelida “BOOT” (Build-Own-Operate-Transfer) modelida xususiy sektor loyiha inshootini quradi, unga egalik qiladi, uni ishlatadi va ma‘lum vaqt o‘tganidan so‘ng uni davlatga topshiradi. Mazkur modelda davlat infratuzilmasini xususiy sektor ishtirokida qurish va rivojlantirish imkonini beruvchi keng tarqalgan DXSh shaklidir. Ushbu modelda xususiy investor loyiha inshootiga egalik qilgan holda uni belgilangan muddat davomida boshqaradi va belgilangan daromad olgach, uni davlatga topshiradi. BOOT modeli infratuzilmaga dastlabki davlat sarmoyasiz kirishni ta‘minlaydi, biroq shartnoma muddati yakunida aktivni qayta topshirishdagi

huquqiy va texnik tafovutlar yechimini talab etadi. O'zbekiston sharoitida BOOT modeli yirik avtomagistral va tranzit yo'llarni qurishda qo'llanishi mumkin. Bu model orqali davlatning dastlabki budjet xarajatlari kamayadi, xususiy sektor esa innovatsion texnologiyalarni jalb etish orqali loyihani samarali boshqaradi.

5-jadval

Yo'l qurilishi sohasida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) asosidagi xalqaro amaliyoti¹⁵

№	Mamlakat	Loyihalar	DXSH modeli	Natijasi
1	Buyuk Britaniya	"Private Finance Initiative" (PFI) orqali yo'l, ko'priklar va transport loyihalari	BOOT (Build-Own-Operate-Transfer)	700+ loyiha, 70 mlrd funt sterlingdan ortiq sarmoya ¹⁶
2	Turkiya	Istanbul - Izmir avtomagistrali, Osmangazi ko'prigi	BOT (Build-Operate-Transfer)	Loyihaga xususiy investorlar \$6,3 mlrd sarmoya kiritgan ¹⁷
3	Hindiston	Milliy yo'l tarmog'i modernizatsiyasi	HAM (Hybrid Annuity Model), BOT	Sarmoyaning 60% davlat, 40% xususiy sektor tomonidan ta'minlangan ¹⁸
4	Janubiy Koreya	Seoul-Busan avtomagistrali	BTO (Build-Transfer-Operate)	O'rtacha 25 yil muddatga shartnoma, xususiy sektor riskni qoplaydi ¹⁹
5	Braziliya	Federal avtomobil yo'llarining modernizatsiyasi	Concession model	Xususiy operatorlar texnik xizmat ko'rsatish va tarif asosida faoliyat yuritadi ²⁰

Yo'l infratuzilmasi davlat iqtisodiyoti va aholi harakatchanligi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, yo'l qurilish tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda investitsion mablag'lardan oqilona foydalanish asosiy vazifa hisoblanadi. Davlat subsidiyalari, xususiy investitsiyalar va davlat-xususiy sheriklik (DXSH) mexanizmlari yo'l qurilish loyihalarini samarali moliyalashtirishda asosiy rol o'ynaydi.

2024-yilda amalga oshirilgan avtomobil yo'llari qurilishi loyihalarida 280 milliard so'm qo'shimcha moliyaviy resurslar jalb qilindi. Bu mablag'lar:

yangi yo'l uzunligini 320 kmga oshirish,

1200 ta yangi ish o'rni yaratish,

logistik xarajatlarni 10–12% kamaytirish,

aholi harakatchanligini 15–20% oshirish maqsadida yo'naltirildi.

Loyihalar samaradorligi ijtimoiy (S), iqtisodiy (E) va tashkiliy (O) ko'rsatkichlar asosida baholandi. Moliyaviy barqarorlik indeksi (MBI) quyidagicha

¹⁵ Manbalar asosida muallif tomonidan tuzildi

¹⁶ Yescombe, E.R. (2017). Public-Private Partnerships: Principles of Policy and Finance. Butterworth-Heinemann, London

¹⁷ World Bank (2018). Turkey's Public-Private Partnership Program: Lessons from the Health and Transport Sectors

¹⁸ Asian Development Bank (ADB, 2020). India's Hybrid Annuity Model for Roads: A New Approach to PPPs

¹⁹ OECD (2018). Effective Delivery of Infrastructure Through PPPs: South Korea's Experience. Korea Development Institute (KDI), PPP Research Center

²⁰ Inter-American Development Bank (IDB, 2021). Public-Private Partnerships in Brazil: Current Status and Future Opportunities

hisoblanadi:

$$"MBI" = \alpha \cdot S + \beta \cdot E + \gamma \cdot O$$

Bunda O — tashkiliy samaradorlik, α, β, γ — tegishli vazn koeffitsiyentlari.

Qo'shimcha moliyaviy resurslar va DXSH mexanizmi orqali yo'l qurilish loyihalari:

Ijtimoiy samaradorlikni oshirib, aholi harakatchanligi va ish bilan ta'minlanishni yaxshiladi ($S=0.82$),

Iqtisodiy samaradorlikni mustahkamlab, investitsiyalarning ichki foyda me'yori ($IRR = 15-17\%$) va NPV orqali qaytish darajasini ta'minlaydi ($E=0.78$),

Tashkiliy samaradorlik (ERP va BIM tizimlari) loyiha boshqaruv jarayonlarini optimallashtirib, resurslar taqsimotini samarali qiladi ($O=0.73$).

Qiymatlarni qo'yib hisoblasak:

$$"MBI" = 0.4 \cdot 0.82 + 0.35 \cdot 0.78 + 0.25 \cdot 0.73 \approx 0.78$$

Bu yo'l qurilish tashkilotining moliyaviy barqarorligining yuqori darajada ekanligini ko'rsatadi.

Davlat subsidiyalari, xususiy investitsiyalar va DXSH mexanizmlari orqali jalb qilingan qo'shimcha moliyaviy resurslar yo'l qurilish loyihalarining ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligini yaxshilash hamda tashkiliy jarayonlarni optimallashtirish orqali yo'l qurilish tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini kompleks baholash va prognoz qilish imkonini beradi.

Tashkilotning investitsion jozibadorligi - bu uning mavjud va potensial investorlar uchun sarmoya kiritish nuqtayi nazaridan qulay va ishonchli ob'yekt sifatida baholanish darajasidir. Ushbu ko'rsatkich ko'plab omillarning murakkab o'zaro ta'siriga bog'liq bo'lib, ular faqat korxonaning ichki moliyaviy natijalari bilan emas, balki tashqi muhit sharoitlari bilan ham belgilanadi.

1. Siyosiy va iqtisodiy barqarorlik. Investitsion qarorlar qabul qilishda eng asosiy mezonlardan biri bu - mamlakat yoki mintaqaning umumiy siyosiy va makroiqtisodiy barqarorlik darajasidir. Siyosiy barqarorlik, boshqaruvning ochiqligi, byurokratik to'siqlarning kamligi va ijtimoiy xavfsizlik investorlar uchun xavf-xatarlarni kamaytiradi. Mamlakat iqtisodiyoti barqaror o'sish sur'atlariga ega bo'lsa, bu korxona faoliyati uchun ham ijobiy makrofon yaratadi.

2. Qonunchilik tizimi va huquqiy kafolatlar. Investitsion jozibadorlik yuqori bo'lishi uchun qonun ustuvorligi, mustaqil va adolatli sud tizimining mavjudligi, shuningdek, investorlar huquqlarining kafolatli himoyasi muhim ahamiyatga ega. Huquqiy noaniqliklar, soliq qonunchiligining tez-tez o'zgarib turishi, murakkab ruxsatnomalar tizimi investorlar uchun ortiqcha xavf tug'diradi.

3. Korruptsiya darajasi va boshqaruv sifati. Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, yuqori korruptsiya darajasi investitsiyalar oqimini sezilarli darajada cheklaydi. Transparensiya, davlat xaridlarining ochiqligi, raqamlashtirish darajasi va boshqaruv tizimining samaradorligi investorlar tomonidan bevosita e'tiborga olinadi. Shuningdek, korruptsiya risklarini kamaytirish tartibotlarining mavjudligi ham ijobiy omil hisoblanadi.

4. Soha va tarmoq holati. Tashkilot faoliyat yuritayotgan tarmoqning iqtisodiy salohiyati, bozor hajmi, talab dinamikasi va texnologik darajasi investitsion jozibadorlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan, yo'l qurilishi, energetika yoki IT tarmoqlari kabi strategik sohalar investitsiyalar uchun afzal yo'nalish hisoblanadi.

5. Tashkilotning ichki omillari. Tashkilotning investitsion jozibadorligini belgilovchi ichki omillar quyidagilardan iborat:

- moliyaviy ko'rsatkichlar (sof foyda, rentabellik, likvidlik, moliyaviy mustaqillik darajasi va boshqalar);
- boshqaruv sifati va strategik rejalashtirish darajasi;
- xodimlarning malakasi va mehnat unumdorligi;
- texnologik baza va ishlab chiqarish quvvatlarining yangiligi;
- innovatsion salohiyat, patentlar, litsenziyalar va ilmiy-texnik resurslar.

6. Mintaqaviy infratuzilma va logistika imkoniyatlari. Investorlar uchun ahamiyatli bo'lgan boshqa omillar – bu logistika qulayligi, transport tarmoqlariga ulanish, energetika resurslariga yaqinlik va boshqa infratuzilmaviy imkoniyatlardir. Ayniqsa, yo'l qurilishi sohasida bu mezonlar strategik ahamiyatga ega.

7. Bozor holati va raqobat muhiti. Tashkilot faoliyat yuritayotgan bozordagi raqobat darajasi, sohaning tartibga solish darajasi va iste'molchilar ehtiyoji barqarorligi ham sarmoya kiritish qaroriga ta'sir etuvchi omillardandir. Tashkilotlarning investitsion jozibadorligini baholash zamonaviy iqtisodiyotni boshqarishda muhim o'rin tutadi. Ushbu baholash moliyaviy qarorlar qabul qilishda quyidagi yo'nalishlarda markaziy ahamiyat kasb etadi:

Investitsion jozibadorlikni baholashdan asosiy maqsad - bu xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holati, boshqaruv salohiyati, kapital tuzilmasi, foydalilik darajasi va investitsiyalarning rentabellik imkoniyatlarini aniqlashdir. Bunday tahlil potentsial investor yoki kredit beruvchiga kompaniya moliyaviy barqarorligini hamda sarmoyaning qaytarilishi ehtimolini baholashda xizmat qiladi. Tashkilotning investitsion jozibadorligini kompleks baholash nafaqat investorlar uchun sarmoya kiritish xavfsizligini ko'rsatadi, balki o'z-o'zini moliyalashtirish darajasini, davlat yoki xalqaro institutlar bilan hamkorlik qilish imkoniyatlarini aniqlashda ham muhim vosita hisoblanadi. Ushbu baholash natijalari asosida yo'l qurilishi tashkilotlari uchun uzoq muddatli strategik investitsiya modelini ishlab chiqish mumkin bo'ladi.

Investitsion jozibadorlikni aniqlash jarayonida tashkilotlar quyidagi mezonlar asosida kompleks tahlil qilinadi:

6-jadval

Investitsion jozibadorligini tahlilidagi mezonlar²¹

№	Ko'rsatkichlarlar	Tahlil asoslari
1	Moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari	To'lov qobiliyati (likvidlik darajasi);
		Moliyaviy mustaqillik (kapital va qarzlar nisbatlari)
		Rentabellik (ROA, ROE, ROS)
		Qarzdorlik yuklamalari
2	Iqtisodiy salohiyat	Faoliyat samaradorligi (asosiy vositalar rentabelligi, mahsulot ishlab chiqarish sur'atlari)
		Innovatsion faollik (texnik va texnologik yangilanishlar)
		Bozor ulushi va o'sish dinamikasi
3	Boshqaruv sifatini baholash	Strategik rejalashtirish darajasi
		Risklarni boshqarish tizimi
		Kadrlar malakasi va tashkilot ichki madaniyati
4	Institutsional ko'rsatkichlar	Korxonaning tashkilot-huquqiy shakli va raqobatbardoshligi
		Investitsiya loyihalarining huquqiy va shartnomaviy bazasi
		Tashqi muhitga moslashuvchanlik darajasi

²¹ Manbalar asosida muallif tomonidan yaratildi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib, investitsion jozibadorlik - bu ko'p qirrali, kompleks iqtisodiy kategoriya bo'lib, nafaqat moliyaviy barqarorlik, balki mahsulot sifati, menejment darajasi, innovatsion rivojlanish salohiyati, xavflarni boshqarish strategiyalari va bozor ishonchliligi bilan belgilanadi. Bu yondashuv yo'l qurilishi kabi kapital sig'imi yuqori tarmoqlarda strategik sarmoya qarorlarini asoslashda alohida ahamiyatga ega.

Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini ekspluatatsiya qilishni xususiy sektorga autsorsing asosida topshirish, moliyalashtirish jarayonlarini raqamlashtirish va integratsiyalangan axborot tizimi orqali boshqarish sohadagi iqtisodiy munosabatlarni mutlaqo yangi darajaga olib chiqadi. Bu tizim moddiy va moliyaviy resurslar harakatini shaffoflashtirish, byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish va xususiy sektor investitsiyalarini jalb etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Yo'l infratuzilmasi sohasida ekspluatatsiya ishlarini autsorsingga topshirish integratsiyalangan axborot tizimi bilan birgalikda amalga oshirilganda, moliyaviy operatsiyalar real vaqt rejimida monitoring qilinadi hamda xarajatlar tuzilmasi aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shakllanadi. Bu esa:

- moliyaviy jarayonlarni avtomatlashtirish;
- ma'lumotlarni qayta ishlash vaqtini qisqartirish;
- xarajatlar shaffofligini ta'minlash;
- investitsiyaviy muhitni yaxshilash;
- ekspluatatsiya samaradorligini oshirish imkonini yaratadi.

7-jadval

Moliyaviy ko'rsatkichlarning taqqoslama tahlili

Ko'rsatkichlar	Tadqiqotgacha	Tadqiqotdan so'ng	O'zgarish
Moliyaviy operatsiyalarni qayta ishlash vaqti	100%	40%	-60%
Avtomatlashtirilgan mablag'lar	0 mlrd so'm	480 mlrd so'm	+480 mlrd so'm
Shaffoflikdan kelgan resurslar	0 mlrd so'm	350 mlrd so'm	+350 mlrd so'm
Xususiy sektor investitsiyalari	120 mlrd so'm (o'rtacha)	420 mlrd so'm	+300 mlrd so'm

8-jadval

Umumiy moliyaviy samaradorlikning hisob-kitobi

Qo'llanilgan ko'rsatkich	Qiymati (mlrd so'm)	Formuladagi o'rni
Avtomatlashtirilgan mablag'lar	480	A
Vaqt tejalishi ($A \times 0.6$)	288	$A \times k_t$
Shaffoflik hisobiga resurslar	350	R
Xususiy investitsiyalar	420	I_x
Jami samaradorlik	1538	MS

Tadqiqotda avtomobil yo'llarini ekspluatatsiya qilish jarayonlarini avtomatlashtirishning umumiy iqtisodiy samaradorligi quyidagi formula asosida hisoblandi:

$$MS = A + (A \times k_t) + R + I_x$$

bu yerda:

- **MS** — umumiy moliyaviy samaradorlik;
- **A** — avtomatlashtirilgan moliyaviy operatsiyalar hajmi;
- **k_t** — vaqt tejalishi koeffitsiyenti;
- **R** — shaffoflik hisobiga jalb qilingan resurslar;
- **I_x** — xususiy sektor investitsiyalari.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra:

- avtomatlashtirilgan jarayonlar — 480 mlrd so‘m;
- ma’lumot tahlilining qisqarishi — 60% ($k_t = 0.6$);
- shaffoflik ortishi hisobiga qo‘shimcha resurslar — 350 mlrd so‘m;
- xususiy sektor investitsiyalari — 420 mlrd so‘m.

Shunga ko‘ra:

$$MS = 480 + (480 \times 0.6) + 350 + 420 = 1538 \text{ млрд сўм}$$

Integratsiyalangan axborot tizimini joriy qilish, ekspluatatsiya ishlarini outsorsing mexanizmlari bilan uyg‘unlashtirish va real vaqtda monitoring qilish imkoniyatlari sohada quyidagi natijalarga erishishga olib keldi:

- moliyalashtirish jarayonlari 480 mlrd so‘m hajmda avtomatlashtirildi;
- analitik ma’lumotlarni qayta ishlash vaqti 60% ga qisqartirildi;
- shaffoflik oshishi 350 mlrd so‘m qo‘shimcha resurslarni jalb qilishga xizmat qildi;
- xususiy sektor tomonidan 420 mlrd so‘mlik investitsiyalar kiritildi.

Integratsiyalangan axborot tizimini joriy etish va avtomobil yo‘llarini ekspluatatsiya qilishning outsorsing modelini shakllantirish sohadagi moliyaviy jarayonlarning shaffofligini oshirdi, byudjet resurslaridan foydalanish samaradorligini ko‘tardi va xususiy sektor investitsiyalarini jalb qilishga xizmat qildi. Umumiy iqtisodiy samaradorlikning 1538 mlrd so‘m etib hisoblanishi ushbu mexanizmning yuqori amaliyotbop qiymatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

XULOSA

Yo‘l qurilish sohasi milliy iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri sifatida infratuzilmani rivojlantirish, hududlararo transport aloqalarini mustahkamlash va aholi hayot sifatini yaxshilashda muhim o‘rin tutadi. Ushbu sohada faoliyat yuritayotgan korxonalarining moliyaviy barqarorligi davlat investitsiyalarining natijadorligi, iqtisodiy o‘sinh sur‘atlari va tashqi investorlar ishonchi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Moliyaviy barqarorlik – bu faqat rentabellik emas, balki korxonaning o‘z vaqtida moliyaviy majburiyatlarni bajarish qobiliyati, aylanma mablag‘lar yetarliligi, moliyaviy mustaqillik darajasi va aktivlar strukturasiining sog‘lom holatidadir. Yo‘l qurilish korxonalarida bu omillar ko‘plab tashqi va ichki omillar ta’sirida o‘zgaruvchanlik kasb etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, ko‘plab yo‘l qurilish korxonalarida moliyaviy barqarorlikka erishishda muayyan muammolar mavjud. Jumladan, davlat buyurtmalarining moliyalashtirilishidagi kechikishlar, ishlab chiqarish xarajatlarining yuqoriligi, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashdagi sustlik, raqamlashtirish darajasining pastligi va menejment tizimining eskiligi asosiy muammolardan hisoblanadi.

Korxonalarining moliyaviy holatini baholashda likvidlik ko'rsatkichlari, qarzdorlik darajasi, sof foyda rentabelligi va o'z mablag'lar ulushi asosiy indikatorlar sifatida ishlatilmoqda. Biroq bu ko'rsatkichlar yetarlicha tizimlashtirilmagan va real vaqt rejimida monitoring qilinmayapti. Shu bois ularni muntazam tahlil qilib borish muhim hisoblanadi.

Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun ko'p omilli yondashuv talab etiladi. Ya'ni faqatgina kredit yuki kamaytirilishi emas, balki xarajatlar tarkibini optimallashtirish, ichki auditni kuchaytirish, investitsiya oqimlarini samarali boshqarish va yangi moliyalashtirish manbalarini izlab topish lozim.

Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish yo'l qurilish korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshirishda muhim vosita bo'lishi mumkin. Xususan, ASKUG, ERP, Smart Budget kabi tizimlar yordamida xarajatlar monitoringi, moliyaviy oqimlarni rejalashtirish va hisobotlarni avtomatlashtirish imkoniyati paydo bo'ladi. Afsuski, hozirda bunday texnologiyalar aksariyat hollarda to'liq joriy etilmagan.

Korxonalarda zamonaviy moliyaviy menejment tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish zarur. Jumladan, loyiha-byudjet boshqaruvi, ABC-costing, KPI tizimi orqali moliyaviy samaradorlikni oshirish va nazoratni kuchaytirish mumkin. Bu esa xo'jalik yurituvchi subyektning raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Moliyaviy barqarorlikka salbiy ta'sir qiluvchi omillardan biri bu kadrlar malakasining yetarli emasligidir. Ayniqsa, moliyaviy tahlil, byudjet rejalashtirish, risk-menejment yo'nalishida mutaxassislar yetishmaydi. Shu bois maxsus o'quv kurslari, treninglar va amaliyotlar orqali kadrlar salohiyatini oshirish talab etiladi.

Davlat tomonidan yo'l qurilish korxonalarini qo'llab-quvvatlashda samarali moliyaviy mexanizmlarni ishlab chiqish zarur. Bu jumladan, soliq imtiyozlari, past foizli kredit liniyalari, davlat kafolatlari asosida moliyalashtirish, tender tartiblarida mahalliy korxonalarni rag'batlantirish kabi vositalarni o'z ichiga olishi kerak.

Moliyaviy barqarorlikni monitoring qilish tizimini joriy etish ham dolzarb masaladir. Korxonalarda har chorakda moliyaviy indikatorlar asosida ichki hisobotlar tayyorlanishi, ularning asosida strategik qarorlar qabul qilinishi moliyaviy intizomni mustahkamlaydi.

Yo'l qurilish loyihalarining moliyaviy samaradorligini aniqlovchi tizimli metodikani ishlab chiqish ham muhim. Bu metodikada ishlab chiqarilgan mahsulot birligiga to'g'ri keladigan foyda, amortizatsiya fondining ishlatilish darajasi, aktivlar aylanish tezligi va loyihalarining umumiy rentabelligi e'tiborga olinishi zarur.

Korxonalar faoliyatida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarini yanada kengroq qo'llash, uzoq muddatli infratuzilma loyihalarini barqaror moliyalashtirish imkonini beradi. DXSh orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va risklarni teng taqsimlashga erishish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, yo'l qurilish korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun kompleks yondashuv talab qilinadi. Bu yondashuv strategik rejalashtirish, raqamli transformatsiya, malakali kadrlar tayyorlash, moliyaviy tahlil vositalarini takomillashtirish va davlat siyosatining izchil amalga oshirilishi bilan uyg'un bo'lishi lozim.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ
СТЕПЕНЕЙ DSc.22/29.12.2023.I.175.01 ПРИ
ТАШКЕНТСКОМ МЕЖДУНАРОДНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

ТАШКЕНТСКИЙ МЕЖДУНАРОДНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

РАХИМОВ ДИЛШОДЖОН ТУРДИАЛИ ЎГЛИ

**ОБЕСПЕЧЕНИЕ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ
ДОРОЖЕСТРОИТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ**

08.00.07 – “Финансы, денежное обращение и кредит”

АВТОРЕФЕРАТ

Диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

город Ташкент - 2026 год

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2024.3.PhD/Iqt4464.

Диссертация выполнена в Ташкентском международном университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-сайте Научного совета (www.tiu.uz) и на информационно-образовательном портале "ZiyoNet" (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:	Хуснов Кихромон Нинолович доктор экономических наук, доцент
Официальные оппоненты:	Рузиева Дилобар Исомжоновна доктор экономических наук, профессор Алимардонов Мухаммади Ибрагимович доктор экономических наук, профессор
Ведущая организация:	Ташкентский химико-технологический институт

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета DSc.22\29.12.2023.1.175.01 по присуждению ученых степеней при Ташкентском международном университете "17" 01 2026 г. в 12⁰⁰. Адрес: 100114, г. Ташкент, ул. Кичик халка йули, 7. Тел.: (99895) 131-55-55; факс: (99895) 131-55-55; e-mail: (www.tiu.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского международного университета (зарегистрирована под No 4). Адрес: 100114, г. Ташкент, ул. Кичик халка йули, 7. Тел.: (99895) 131-55-55; факс: (99895) 131-55-55; e-mail: (www.tiu.uz)

Автореферат диссертации разослан "22" 12 2025 г.

(Регистрационный протокол No 68 от "06" 12 2025 г.).



Н.Х. Жумаев

Председатель научного совета по
присуждению ученых степеней, доктор
экономических наук, профессор

Н.Х. Абдурахмонов

Ученый секретарь научного совета по
присуждению ученых степеней, доктор
экономических наук, доцент

Д.А. Рахмонов

Председатель научного семинара при
научном совете по присуждению
ученых степеней, доктор
экономических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В последние годы финансовая устойчивость дорожно-строительных организаций в мире перестраивается под влиянием различных глобальных и локальных факторов. В частности, пандемия COVID-19 в 2020-2022 годах оказала серьезное влияние на строительную отрасль во всем мире. Во-первых, крупные инфраструктурные проекты были временно приостановлены или неопределенно отложены из-за эпидемиологических ограничений и карантинных мер. Во-вторых, разрыв цепочек поставок привел к резкому росту цен на строительные материалы - цемент, металл, асфальт, оборудование. В-третьих, дефицит рабочей силы и миграционные ограничения привели к снижению объемов производства, что негативно сказалось на доходах и денежных потоках организаций²². С окончанием пандемии и возобновлением экономической активности многие страны рассматривали развитие инфраструктуры как ключевой фактор экономического восстановления. Такой подход ярко проявился в таких крупных экономиках, как США, Китай, Япония, Германия, Индия. В частности, в соответствии с Законом об инфраструктурных инвестициях и трудоустройстве, принятым правительством США в 2021 году, был выделен бюджет в размере 1,2 триллиона долларов на модернизацию дорог, мостов, железных дорог, портов, аэропортов и широких инфраструктурных сетей²³. В рамках этого проекта планируется осуществить крупнейшие инвестиции в инфраструктуру в истории США за 20 лет.

Геополитическая нестабильность в мировой экономике в течение 2022-2024 годов - в частности, конфликт между Россией и Украиной, экономические беспорядки между западными странами и Китаем, проблемы на Ближнем Востоке - также негативно повлияли на строительную отрасль. Эти нестабильности и вызванные ими высокие уровни инфляции привели к значительному росту цен на сырье (цемент, металл, битум) и топливо (бензин, дизельное топливо, газ) во всем мире. Например, в 2023 году цены на железную продукцию, используемую в строительстве, выросли в среднем на 18-25% на территории ЕС²⁴. В этих условиях запланированные сметы и финансовые прогнозы дорожно-строительных организаций вышли из равновесия, многие тендеры и контракты были вынуждены пересмотреть. На следующем этапе государства внедрили такие механизмы, как компенсация затрат, налоговые льготы, беспроцентные кредиты и рефинансирование на основе коэффициента инфляции для поддержки строительных организаций. В частности, в Германии и Франции разработаны "пакеты экономической устойчивости" для строительных компаний и внедрены в практику "дорожные карты," направленные на смягчение последствий инфляции.

²² World Bank (2021). Impact of COVID-19 on Infrastructure Development. Washington, D.C.

²³ The White House (2021). Fact Sheet: The Bipartisan Infrastructure Deal. www.whitehouse.gov

²⁴ Eurostat (2023). Construction Material Price Index in the EU.

Финансовая устойчивость дорожно-строительных организаций в Новом Узбекистане формируется под влиянием масштабных программ, направленных на развитие государственной инфраструктуры, внешних инвестиций, а также экономических изменений на внутреннем рынке. В течение 2017-2024 годов на основе указов Президента и государственных программ был реализован ряд крупных проектов транспортной инфраструктуры. В частности, активизировались работы по строительству и ремонту магистральных и городских автомобильных дорог. Эта дорога позволила строительным организациям расширить свою деятельность и получить стабильный источник дохода. В то же время рост цен на строительные материалы (битум, цемент, металл) и топливо привел к увеличению стоимости строительства. Например, в 2023 году цена на цемент выросла на 25%²⁵. Кроме того, высокий уровень дебиторской и кредиторской задолженности в некоторых организациях приводит к проблемам ликвидности. Согласно отчетам Министерства финансов за 2023 год, коэффициент заимствования в дорожно-строительных организациях составляет около 0,8-1,2, что указывает на то, что это может представлять проблему для финансовой устойчивости²⁶. Цифровизация и внедрение технологических инноваций - в частности, система BIM (Building Information Modeling), технологии GPS-контроля - позволяют повысить эффективность и оптимизировать затраты²⁷. С каждым годом увеличивается объем средств, направляемых государством на строительство дорог. В то время как в 2023 году из государственного бюджета было выделено 12 трлн сумов на строительство и ремонт дорог, проекты, финансируемые международными финансовыми институтами (МБРР, АБР и другие), также являются важным источником финансирования для организаций. Однако ограниченные возможности участия в тендерах, ограниченный доступ к кредитным ресурсам и недостаточные возможности повышения квалификации для малых и средних дорожных строительных организаций негативно сказываются на их финансовой устойчивости. Поэтому для обеспечения финансовой устойчивости важно, чтобы каждая организация эффективно использовала ресурсы, оптимизировала расходы и использовала механизмы государственной поддержки.

Данное диссертационное исследование служит важной методологической основой при реализации задач, определенных в Указе Президента Республики Узбекистан No УП-6315 от 13 сентября 2021 года "О мерах по развитию автомобильных дорог и коренному реформированию системы управления дорожным хозяйством," Постановлении Кабинета Министров No 683 от 2 ноября 2020 года "О мерах по улучшению материально-технической базы и финансовой поддержке дорожно-строительных организаций," Указе Президента Республики Узбекистан No

²⁵ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi (2024). Qurilish materiallari bozorida narxlar tahlili.

²⁶ Moliya vazirligi hisobotlari (2023). Yo'l qurilish tashkilotlarining moliyaviy ko'rsatkichlari tahlili.

²⁷ "O'zavtoyo'l" agentligi matbuot xizmati (2023). Raqamlashtirish orqali yo'l qurilishida samaradorlikni oshirish choralari.

УП-138 от 18 мая 2022 года "О мерах по реформированию строительной отрасли и повышению ее конкурентоспособности," Постановлении Президента Республики Узбекистан No ПП-357 от 16 августа 2022 года "О мерах по реализации стратегии развития сети автомобильных дорог на 2022-2026 годы," Постановлении Кабинета Министров No 367 от 15 июня 2021 года "О внедрении системы бухгалтерского учета и финансового анализа на дорожно-строительных предприятиях на основе международных стандартов," "Концепции цифровизации строительной отрасли в Республике Узбекистан" (на 2020-2025 годы), а также в ряде других нормативно-правовых документов, относящихся к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. "Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики."

Степень изученности проблемы. Теоретико-научные, методологические и практические проблемы приоритетных направлений обеспечения финансовой устойчивости предприятий, организации деятельности государственных предприятий с государственной долей, обеспечения их финансовой устойчивости были всесторонне изучены в научных трудах зарубежных ученых, таких как D. A. Aschauer, Bent Flyvbjerg, Edward Glaeser, Jeffrey Sachs, Сорокина Е.М., С. Попова, В. Слепунин, Н. Герасимова, В. Архипов, Г.С. Беляков, Н.С. Беспалов, Н.Н. Беспалов и других экономистов²⁸.

